

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SAYLOV KODEKSINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 18-fevralda qabul qilingan
Senat tomonidan 2019-yil 28-fevralda ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining [Saylov kodeksi](#) tasdiqlansin.

2-modda. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi 414-XII-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, № 1, 34-modda);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunini kuchga kiritish haqida"gi 415-XII-sonli [Qarori](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, № 1, 35-modda);

3) O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi 990-XII-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan 518-II-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 9-10, 132-modda);

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonunini](#) amalga kiritish to'g'risida"gi 991-XII-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, № 1, 7-modda);

5) O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 5-mayda qabul qilingan "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi 1050-XII-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, № 5, 125-modda);

6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994-yil 5-mayda qabul qilingan "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonunini](#) amalga kiritish haqida"gi 1050a-XII-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, № 5, 126-modda);

7) O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 5-mayda qabul qilingan "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi 1051-XII-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, № 5, 127-modda);

8) O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 549-I-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 3, 38-modda) [II](#), [X](#) va [XI bo'limlari](#);

9) O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi 613-I-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 5-6, 95-modda);

10) O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 729-I-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 1, 20-modda) [VII](#) va [XVIII bo'limlari](#);

11) O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish haqida"gi 809-I-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 9, 206-modda);

12) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish xususida"gi 810-I-sonli [Qarori](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 9, 207-modda);

13) O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 82-II-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, № 5-6, 153-modda) [I, IX, XIII va XXVII bo'limlari](#);

14) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan "Yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi 519-II-sonli [Qarori](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 9-10, 133-modda);

15) O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 520-II-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 9-10, 134-modda);

16) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish to'g'risida"gi 521-II-sonli [Qarori](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 9-10, 135-modda);

17) O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 27-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 671-II-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 9, 171-modda) [IV, V va XIII bo'limlari](#);

18) O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi 714-II-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005-yil, № 1, 18-modda) I bo'limining [5, 21, 27 va 28-bandlari](#);

19) O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-194-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 12, 637-modda) [2, 3, 6 va 11-moddalari](#);

20) O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish haqida"gi O'RQ-306-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011-yil, № 12/1, 344-modda) [1-moddasi](#);

21) O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 19-dekabrda qabul qilingan "Saylov erkinligi yanada ta'minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-340-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012-yil, № 12, 331-modda);

22) O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 20-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-365-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 1, 2-modda) [5-moddasi](#);

23) O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-

373-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 9, 244-modda) **19-moddasi**;

24) O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 29-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-396-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015-yil, № 12, 452-modda) **1, 4, 5 va 17-moddalari**;

25) O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan "Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'RQ-439-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 8, 383-modda) **3-moddasi**;

26) O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-476-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 4, 224-modda) **10, 11 va 32-moddalari**.

3-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini Kodeksga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari Kodeksga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

4-modda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda Kodeksning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

5-modda. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 25-iyun,
O'RQ-544-son

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.06.2019-y., 03/19/544/3337-son)